"O'zaviatsiya" agentligining
01-39/1-2193 son xatiga
ilova

2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston tarraqqiyot strategiyasi" Davlat dasturining "O'zaviatsiya" agentligiga taalluqli bandlarining ijrosi to'g'risidagi

# M'alumot

(O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 05 fevral 31/1-180-son topshiriq) 27.12.2022yil holatiga

| t/r | Tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddati | Ma'sul ijrochilar | Amalga oshirilgan ishlar |
|---|---|---|---|---|---|
| **35-maqsad: "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 ming nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 ming nafarga yetkazish** | | | | | |
| 1. | Respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 2026 yilga qadar 9 ming nafarga yetkazish.<br>- Xalqaro aviatashuvlar sonini oshirish. Bunda, pandemiya sharoitidan kelib chiqib joriy yildan boshlab 40ta xorijiy davlat aviatashuvchilari bilan muzokara olib borish.<br>**(1.173.2-band)** | 1. "O'zaviatsiya" agentligi o'z vakolatlari doirasida muzokaralarda ishtirok etish.<br>2. Yangi tayinlangan xorijiy davlat aviatashuvchilaridan kelib tushgan tegishli hujjatlarni va arizalarni belgilangan tartibda ko'rib chiqish.<br>3. Xorijiy davlat aviatashuvchilaridan kelib tushgan tegishli hujjatlar va arizanlarni agentlikning tegishli bo'limlari bilan o'rganib chiqib, arizani Transport vazirligiga kelishishga yuborish.<br>4.Transport vazirligidan tegishli fikri olingandan so'ng xorijiy davlat aviatashuvchilarga o'rnatilgan tartibda **Ekspluatasion ruxsatnoma** rasmiylashtirish. | **2022 yil davomida** | O.Lim<br>**N.Baymurzaeva** | **Bajarilmoqda**<br>1. 2022 yil 26 sentabr holatiga ko'ra 44 ta xorijiy aviakompaniyalar O'zbekiston Respublikasiga muntazam aviaqatnovlarni amalga oshirish huquqini beruvchi Esplutatsion ruxsatnomaga ega.<br>2. "O'zaviatsiya" agentligiga Pokistonning "PIA" aviatashuvchisidan kelib tushgan arizaga asosan O'zbekiston Respublikasiga Islomobod-Toshkent yunalishida muntazam aviaqatnovlarni amalga oshirish huquqini beruvchi Ekspluatatsion Ruxsatnomasini 2022yil 28 fevral kuni yangilab berildi.<br>3. Birlashgan Arab Amirliklarining "**Wizz Air Abu Dhabi**" aviakompaniyasiga O'zbekiston Respublikasiga muntazam aviaqatnovlarni amalga oshirish uchun 2022 yil 30 avgustdagi 16-K sonli Ekspluatatsion ruxsatnoma berildi.<br>4. Saudiya Arabistonning "**FlyNas**" aviakompaniyasiga O'zbekiston Respublikasiga muntazam aviaqatnovlarni amalga oshirish uchun 2021 yil 25 iyundagi 12-K sonli Ekspluatatsion ruxsatnoma berilgan va amaldagi Er-Riyad – Toshkent yo'nalishidagi Ekspluatatsion ruxsatnomaga 2022 yil 26 avgustda Djidda- |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | Toshkent yo‘nalishi kiritildi.<br>5. Rossiya Federatsiyasining “**Azimut**” aviakompaniyasiga Mineralniye Vodi- Samarqand yo‘nalishida muntazam aviaqatnovini amalga oshirish uchun 2022 yil 28 may 14-K sonli Ekspluatatsion ruxsatnomasi rasmiylashtirilib berildi.<br>6. Rossiya Federatsiyasining “**Sibir**” Moskva-Buxara va Novosibirsk-Samarqand yo‘nalishida muntazam aviaqatnovini amalga oshirish uchun Ekspluatatsion ruxsatnomasi rasmiylashtirilib berildi.<br>7. BAAning “**Fly Dubai**” aviakompaniyasining Dubay-Farg’ona-Dubay yo‘nalishida aviaqatnovlarni amalga oshirish uchun aviakompaniyaning 2019 yil 11 yanvar 92-K-sonli Ekspluatatsion ruxsatnomasiga yo‘nalish kiritilib rasmiylashtirilib berildi.<br>8. Quvaytning “**Jazeera**” aviakompaniyasining Quvayt-Namangan yo‘nalishida muntazam aviatqatnovini amalga oshirish uchun Ekspluatatsion ruxsatnomasini rasmiylashtirilib berildi.<br>9. Azarbaydjonning “**Azal**” aviakompaniyasining Baku- Samarqand yo‘nalishida muntazam aviatqatnovini amalga oshirish uchun Ekspluatatsion ruxsatnomasi rasmiylashtirilib berildi.<br>10. Turkiyaning “**Turkish Airlines**” aviakompaniyasining Ankara-Tashkent yo‘nalishida muntazam aviatqatnovini amalga oshirish uchun Ekspluatatsion ruxsatnomasi rasmiylashtirilib berildi.<br>11. BAAning “**Air Arabia**” aviakompaniyasining Shardja-Namangan yo‘nalishida aviaqatnovlarni amalga oshirish uchun aviakompaniyasi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | Ekspluatatsion ruxsatnomasiga yo'nalish kiritilib rasmiylashtirilib. berildi.<br>12. Eronning **"Qeshm Air"** aviakompaniyasiga Tehron – Toshkent va Tehron – Samarqand yo'nalishlarida muntazam aviaqatnovlarni amalga oshirish uchun 2022 yil 22 noyabr kuni 17K-sonli Ekspluatatsion ruxsatnomasi rasmiylashtirib berildi.<br>13. Омон Султонлигининг **"Salam Air"** aviakompaniyasiga Maskat–Toshkent va Maskat–Namangan yo'nalishlarida muntazam aviaqatnovlarni amalga oshirish uchun 2022 yil 30 noyabr kuni 18K-sonli Ekspluatatsion ruxsatnomasi rasmiylashtirib berildi. |
| 2. | Qoraqalpog'iston Respublikasi va Orol bo'yida ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha alohida dasturni amalga oshirish. Bunda, Mo'ynoqning yangi aeroporti imkoniyatlaridan keng foydalanish.<br>Mo'ynoq aeroportidan kelgusida samarali foydalanishni nazarda tutuvchi aniq chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish.<br>**(1.182.4-band)** | 1.Mo'ynoq aerodromining **uchish/qo'nish** yo'lagi holatini va suniy qoplamalarini holatini nazorat qilish hamda o'z vaqtida Transport vazirligiga ma'lumot kiritish. | 2022 yil davomida | **O.Lim**<br>**I.Nigmatullaev** | **Bajarildi**<br>"O'zaviatsiya" agentligi tomonidan "Muynoq" aeroportidan kelgusida samarali foydalanish uchun qilinishi ko'zda tutilgan chora-tadbirlar ishlab chiqildi va Transport vazirligiga **2022yil 28 fevralda 01-39/11-277** sonli xat bilan taqdim etildi. |
| 3. | Buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish bo'yicha alohida dasturni amalga oshirish. 2022-2026 yillarda xorijiy va mahalliy turistlar sonini 5 ming nafarga, eksport hajmini 600 ming AQSh dollariga yetkazish. Viloyatning turizm infratuzilmasini kengaytirish. Bunda: Buxoro aeroporti orqali muntazam xalqaro aviaqatnovlar | 1. "O'zaviatsiya" agentligi o'z vakolatlari doirasida muzokaralarda ishtirok etishi.<br>2. Yangi tayinlangan xorijiy davlat aviatashuvchilaridan kelib tushgan tegishli hujjatlarni va arizalarni belgilangan tartibda ko'rib chiqish.<br>3.Xorijiy davlat aviatashuvchilaridan kelib tushgan tegishli hujjatlar va arizanlarni agentlikning tegishli bo'limlari bilan | 2022 yil iyun oyiga qadar | O.Lim<br>**N.Baymurzaeva** | **Bajarilmoqda**<br>"O'zaviatsiya" agentligi tomonidan Buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish bo'yicha alohida dasturni amalga oshirish masalasida quyidagilar amalga oshirildi:<br>**11 ta** xorijiy aviatashuvchilarga ("Уральские Авиалинии", "СИБИРЬ", "Аэрофлот", "Smart Avia", "Turkish Airlines", "ЮТ Эйр", "RED WINGS", "I Fly", "Smart Avia", "SCAT" va "Somon Air") Buxoro xalqaro aeroportiga muntazam aviqatnovlarni |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | sonini oshirish; **(1.184.1-band)** | o'rganib chiqib, arizani Transport vazirligiga kelishishga yuborish.<br>4.Transport vazirligidan tegishli fikri olingandan so'ng xorijiy davlat aviatashuvchilarga o'rnatilgan tartibda **Ekspluatasion ruxsatnoma** rasmiylashtirish . | | | amalga oshirish huquqini beruvchi Ekspluatatsion ruxsatnomalar rasmiylashtirilgan. Ushbu aviakompaniyalar Istanbul, Dushanbe, Moskva, S.Peterburg, Novosibirsk, Olma-ota va Nursulton shaharlaridan muntazam aviaqatnovlarni amalga oshirmoqda.<br>Rossiya Federatsiyasining quyidagi aviakompaniyalaridan Buxoro shahriga muntazam parvozlarni amalga oshirish uchun quyidagi aviakompaniyalarga Ekspluatatsion ruxsatnomasi rasmiylashtirib berildi :<br>- "**Sibir**" aviakompaniyasining Moskva-Buhara yo'nalishida;<br>- "RED WINGS" aviakompaniyasi Mahachkala-Buxoro- Mahachkala va Yekaterenburg-Buxoro-Yekaterenburg yo'nalishida. |
| **36-maqsad: Barcha transport turlarini uzviy bog'lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, yirik shaharlar o'rtasida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish** | | | | | |
| 4. | Toshkent va yirik shaharlar o'rtasida kunlik transport qatnovlari bo'yicha manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish. | | | | |
| | 1. Havo transportini rivojlantirish orqali shaharlararo qatnovlarda aholi mobilligini oshirish. Bunda 2026yilgacha:mahalliy tashuvlarda xususiy va loukoster aviakompaniyalar ulushini bosqichma-bosqich 25 foizgacha oshirish;mahalliy aviaqatnovlar sonini haftasiga 48 tadan 80 taga hamda tutashuvchi qatnovlar sonini 4 tadan 8 taga yetkazish; ijtimoiy talablardcm hamda zaruriyatdan | 1"O'zaviatsiya"agentligi o'z vakolatlari doirasida xususiy va loukoster aviakompaniyalarni tashkil etish yuzasidan arizalarini o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqish.<br>2.Sertifikatsiya tekshiruvini o'tkazish.Tekshiruv natijasida Xulosa tayyorlash va **Ekspluatant sertifikatini** rasmiylashtirish. | 2022 yil<br>iyun | O.Lim<br>**R.Nishanov** | **Bajarilmoqda**<br>"O'zaviatsiya"agentligi tomonidan AJ "Uzbekistan airways"ga ushbu bandni amalga oshirishda har tomonlama yordam ko'rsatiladi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | kelib chiqqan holda yangi va mavjud *mahalliy aviaqatnovi yo'nalishlarini subsidiyalashni davom ettirish.* **(1.192.1-band)** | | | | |
| | 2. Hududlardagi har bir aeroportni texnik holatidan kelib chiqib iqtisodiy hisob-kitoblar asosida aeroportlarni rivojlantirish konsepsiyasi va har bir aeroport bo'yicha manzilli dastur ishlab chiqish.<br>Bunda: hududlardagi llta xalqaro aeroportlarning o'tkazish qobiliyatini 2 barobarga oshirish;aeroportlarda llta yangi yuk terminalini qurish orqali yuklarga xizmat ko'rsatish hajmi 3 barobarga oshirish; Navoiy aeroporti hamda xalqaro intermodal logistika markazi boshqaruviga yirik xorijiy yuk operatorini jalb qilish.<br>**(1.192.2-band)** | 1.O'zbekiston Respuiblikasi aeroportlarini parvozlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tahlil qilish.<br>2.Tahlil natijalari bo'yicha O'zbekiston Respuiblikasi aeroportlarni rivojlantirish konsepsiyasiga taklif kiritish. | 2022 yil iyun | O.Lim<br>**I.Nigmatullaev**<br>**N.Baymurzaeva** | **Bajarildi**<br>2"O'zaviatsiya"agentligi tomonidan Samarqand aeroporti bo'yicha 4-mart 2022y.**01-39/7-308** son xat Transport vazirligiga kiritildi. |
| 5 | 1.Transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish.<br>2.Samarqand xalqaro aeroportini yirik transport xabiga aylantirish Chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish. Bunda: mahalliy yo'nalishlar bo'yicha parvozlar sonini haftasiga 7 tadan 20 tagacha, geografiyasini 4 ta yo'nalishdan 5 tagacha shirish;xalqaro yo'nalishlar bo'yicha parvozlar sonini haftasiga 25tagacha, geografiyasini 4ta yo'nalishdan 8tagacha oshirish;"Ochiq osmon" rejimini joriy etish hisobiga 8 ta | 1.Samarqand xalqaro aeroportini parvozlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tahlil qilish<br>2.Tahlil natijalari asosida Samarqand aeroportini rivojlantirish yuzasidan Dasturga taklif kiritish. | 2022 yil aprel | O.Lim<br>**N.Baymurzaeva** | **Bajarildi**<br>1.Xalqaro yo'nalishlar bo'yicha xorijiy aviakompaniya parvozlari tahlili o'tkazildi. Tahlil natijalariga ko'ra; bugungi kunda Samarqand xalqaro aeroportiga muntazam aviaqatnovlarni amalga oshirish huquqini beruvchi ruxsatnomaga 11 ta xorijiy aviatashuvchi ("Россия", "Уральский авиалинии", "Сибирь", "Аэрофлот", "Азимут", "Turkish Airlines", "Ut Air", "FlyAristan", "Red Wings", "Smart Avia", "FlyDubai") ega.<br>"O'zaviatsiya"agentligi Aeroportga xorijiy aviakompaniyalarni jalb etish va yangi muntazam xalqaro yo'nalishlarni yo'lga qo'yish maqsadida qo'yidagilarni taklif etadi: |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | xorijiy aviakompaniyanijalb qilish va 17 ta yangi muntazam xalqaro yo'nalishlarni yo'lga qo'yish.<br>**(1.195.2-band)** | | | | 1. «Samarqand» xalqaro aeroportining yer ustida xizmat ko'rsatish tartib-qoidalari ISAGO dasturi bo'yicha jahon xavfsizlik standartlariga muvofiqligini auditdan o'tkazilishi masalasini ko'rib chiqish;<br>Ushbu sertifikatning mavjudligi «Samarqand» xalqaro aeraportiga yirik xorijiy aviatashuvchilarni uchishi uchun aeroportning jozibadorligini oshiradi.<br>Ma'lumot uchun: ISAGO (IATA Safety Audit for Ground Opérations)- IATA auditi yerdagi xizmat ko'rsatuvchi operatorlarning havfsizlik bo'yicha tekshiruv standartlar asosida deb yaratilgan va butun jahon yer usti xizmati ko'rsatuvchilar uchun qo'llaniladi. Dasturning yaratilgandan buyon 9 yil mobaynida 1500ga yaqin auditlar o'tkazildi. Bugungi kunda butun jahon bo'yicha 430dan ortiq yer usti xizmat ko'rsatuvchilari ***ISAGO*** ning amaldagi operatorlari mavjud;<br>2. «Samarqand» xalqaro aeraportida 7-havo erkinligini joriy etish masalasini ko'rib chiqish. |
| | 3.Toshkent va Farg'ona vodiysida xalqaro aeroportlarni rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.<br>**(1.195.3-band)** | 1.Toshkent va Farg'ona vodiysida xalqaro aeroportlarni parvozlar xavfsizligini taminlash bo'yicha tahlil qilish.<br>2.Tahlil natijalari bo'yicha Toshkent va Farg'ona vodiysida xalqaro aeroportlarni tahliliy ma'lumotlar ko'rinishida xulosani aeroportlarni rivojlantirish konsepsiyasiga taklif kiritish. | 2022 yil aprel | O.Lim<br>**I.Nigmatullaev** | **Bajarildi**<br>Toshkent va Farg'ona vodiysida xalqaro aeroportlarni parvozlar xavfsizligini taminlash bo'yicha tahlil qilindi. Unda kelgusida xalqaro aeroportlardan samarali foydalanish ya'ni, tungi parvozlar sonini ko'paytirish va xorijiy aviakompaniyalarni jalb qilish maqsadida, "Andijon" va "Farg'ona" xalqaro aeroportlarini yangi aerodrom yorug'lik signal uskunalari bilan jihozlash taklifi berildi. Tahliliy ma'lumotlar ko'rinishidagi takliflar aeroportlarni rivojlantirish konsepsiyasiga qo'shish uchun Transport vazirligiga **2022 yil 21 apreldagi 01-39/11-585 sonli** xat bilan yuborildi. |